



FOYDA SOLIG'I BO'YICHA SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

ANALYZING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF CORPORATE INCOME TAX INCENTIVES

¹Yangiyeva Nargiza Saidqulovna

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada foyda solig'i to'lovchilariga imtiyozlar berishning huquqiy asoslari, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, foyda solig'i bo'yicha xo'jalik subyektlariga taqdim etilgan mavjud soliq imtiyozlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, ular orqali investitsion faollikni oshirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish hamda ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari bayon etilgan.

Eng. - This article examines the legal foundations for granting tax incentives to corporate income taxpayers, their economic effectiveness, and the use of tax benefits as a means of stimulating business activity. Additionally, existing corporate income tax incentives provided to business entities are analyzed based on statistical data, highlighting their role in enhancing investment activity, expanding the operations of entrepreneurial entities, and supporting them financially.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *soliq imtiyozlari, rag'batlantirish, soliq bazasi, soliq hisoboti.*
❖ *tax benefits, benefits, tax base, tax report.*

Kirish.

Soliq imtiyozlari davlat soliq siyosatini amalga oshirishning ajralmas tarkibiy qismidir. Bir tomondan, ular davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish vositasi sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini amalga oshiradi. Ya'ni, soliq imtiyozlari orqali investitsion faollikni oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mumkin bo'ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, soliq imtiyozlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, yangi ish o'rinlarini yaratishda va

raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligini baholash, ularning davlat budjetiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilish va soliq siyosatini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli, soliq imtiyozlarining maqsadga muvofiqligi, ularni qo'llash mezonlari va monitoring mexanizmlari ilmiy asosda ishlab chiqilishi zarur. Bu esa davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

V.Avdeeva raqamli innovatsiyalarni joriy etishda soliq mexanizmlarining

rag'batlantiruvchi rolga e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida soliq yengilliklari va preferensiyalari texnologik yangiliklarning iqtisodiyotga tatbiq etilishini tezlashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi [3].

N.R.Kuziyeva ilmiy izlanishlarida respublikamizda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha beriladigan imtiyozlar mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan [4].

J.Urmonov fikricha soliq imtiyozi – Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatini qisqartirish, soliq stavkasi va soliq bazasini kamaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati hisoblanadi [5].

I.Niyazmetov Soliq kodeksidan tashqari berilgan barcha soliq imtiyozlarini bekor qilib, ularning o'rniga xalqaro amaliyotda sinalgan innovatsion soliq kreditlari, soliq ta'tillarini ko'zda tutish maqsadga muvofiqligini e'tirof etgan [6].

F.Isayev fikricha soliq imtiyozlari – yuridik shaxslarning ayrim toifalarini soliqlar to'lashdan qisman yoki to'liq ozod qilish, yoki soliqlarni kamroq miqdorda to'lash uchun berilgan imkoniyatdir [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, soliq imtiyozlari soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investorlarni qo'llab quvvatlash hamda ularga shart-sharoitlar yaratish maqsadida beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot doirasida mavzuni chuqur tadqiq etish yuzasidan tizimli tahlil, ilmiy mushohada hamda muallif munosabati, shuningdek, tendensiyali tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan keng foydalanilgan bo'lib, ushbu

tadqiqot metodlari mavzu mohiyatini to'liq ochib berishda qo'l keladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq quyidagi soliq imtiyozlari xo'jalik subyektlariga foyda solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar berilishi ko'zda tutilgan:

- soliq to'lovchilar, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo'yicha o foiz miqdorida soliq stavkasini qo'llashga haqlidir;

- ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi Soliq kodeksining 59-moddasida belgilangan mezonlarga rioya etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioya etmaganlik ro'y bergan soliq davrining boshlanishidan e'tiboran belgilangan soliq stavkasini ilgari o'tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo'llaydi;

- soliq to'lovchilar, agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqli;

- qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi budjet tashkilotlari, basharti bo'shatilayotgan mablag'lardan qonunchilikda belgilangan tartibda byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o'z xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2027-yilning 1-yanvariga qadar o foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llaydi; o'zida ishlovchilarning umumiy o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi;

▪ nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlari hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan soliq to'lovchilar mazkur faoliyat turi bo'yicha foyda solig'ini to'lashdan (bundan foizlar tarzidagi daromadlar mustasno) 2025-yil 1-yanvardan 2029-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda ozod etiladi. Natijada, nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlar ular ixtiyorida qolishi ta'minlanadi va nashr qilinayotgan mahsulotlarning tannarxi pasayadi va sifati yaxshilanadi.

2025-yil 1-fevraldan boshlab 2030-yil 1-yanvarga qadar eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida 10 million AQSh dollaridan oshgan IT-park rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarini (shu jumladan, royalti to'lanadigan) ko'rsatgan, O'zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risida bitim tuzilmagan davlatlarning yuridik shaxslarini ushbu kalendar yil yakuniga qadar foyda solig'idan ozod etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-157-son Farmonida o'z aksini topgan. Shuning natijasida, IT-park rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlar bo'yicha eksport salohiyati oshadi va raqamli iqtisodiyotning YaIM ulushining ko'payishi ta'minlanadi.

2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlarida ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan va quyidagi barcha shartlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i va o'zlarining xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 1 foiz etib belgilash shartlari quyidagilar:

- jami xodimlar sonining kamida 15 foizi Ijtimoiy himoya yagona reestri yoki kambag'al

oilalar reestriga kiritilgan oilalarning a'zolaridan tashkil topganda;

- har oyda har bir xodimga ish haqi miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblanganda; soliq davrida tikuv-trikotaj, poyabzal yoki charm-attorlik mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumi jami tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadning kamida 90 foizini tashkil etishi.

Shuningdek, kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalarning ijtimoiy qo'llab quvvatlash yaxshilanadi hamda tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlarida ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holati yaxshilanadi, shuningdek, adolatli raqobat muhiti ta'minlanadi.

Yuqorida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda soliq to'lovchilarga berilayotgan soliq imtiyozlaridan ko'rish mumkinki, davlat soliq siyosatida iqtisodiyotni rag'batlantirish va rivojlantirish maqsadida aniq va samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Soliq imtiyozlari, ayniqsa, eksport faoliyatini kengaytirish, raqamli iqtisodiyot va sanoatning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kambag'al qatlamlarni ijtimoiy himoya qilish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rag'batlantirish va ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Bu imtiyozlar tizimi soliq to'lovchilar uchun qulay sharoit yaratib, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga va investitsion muhitni yaxshilashga yordam beradi. Mamlakatimizda soliq to'lovchilarga berilayotgan soliq imtiyozlarining asosiy qismi yirik soliq to'lovchilar ulushiga to'g'ri kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda yirik soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari (soliq turlari kesimida)

mlrd. so'm

T/r	Soliq turi	Holatlar soni	Soliq imtiyozlari summasi	Ulushi
Jami		14939	46348,7	100
1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	9056	43373,4	93,6
2.	Aksiz solig'i	7	1,8	0,004
3.	Foyda solig'i	178	2,106,3	4,5
4.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	1553	346,8	0,7
5.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1512	113,6	0,2
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2446	206,6	0,4
7.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	16	4,3	0,01
8.	Ijtimoiy soliq	171	195,9	0,4

2023-yilda jami berilgan soliq imtiyozlarining miqdori 72963,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, yirik soliq to'lovchilarga berilgan imtiyozlarning miqdori 46348,7 mlrd so'm bo'lgan yoki jami imtiyozlarning 63,5 foizini tashkil etgan. Bu nisbat alohida soliq turlari bo'yicha ham shunday. Masalan, QQS bo'yicha jami soliq imtiyozlari 64107,9 mlrd. so'm bo'lib, uning 43373,4 mlrd. so'mi yoki 67,6 foizi yirik soliq to'lovchilarga QQSdan berilgan soliq imtiyozlarini tashkil etmoqda. Yirik soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlarining 93,6 foizi QQSga, 4,5 foizi foyda solig'ining ulushiga to'g'ri kelgan. Foyda solig'i bo'yicha berilgan soliq imtiyozlarining miqdori 2106,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Mazkur ma'lumotlar soliq imtiyozlarining asosan yirik soliq to'lovchilarga yo'naltirilganini ko'rsatadi, bu esa davlat tomonidan iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan siyosatining bir qismidir. Shu bilan birga, QQS va foyda solig'i bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatini yaxshilashga, ularning

raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Biroq, soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashda ularning byudjet daromadlariga ta'siri va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi ham chuqur tahlil qilinishi zarur. Shuningdek, imtiyozlarni taqsimlashda shaffoflikni ta'minlash, ularni berish mexanizmlarini takomillashtirish va byudjet barqarorligini saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Natijada, soliq imtiyozlari siyosatini samarali boshqarish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa yirik va kichik tadbirkorlik subyektlari o'rtasida muvozanatli yondashuvni talab qiladi hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda imtiyozlar orqali soliq to'lovchilarni rag'batlantirish byudjetga qo'shimcha soliq tushumlarini tushushini ta'minlaydi. Foyda solig'ining

tabaqalashtirilgan stavkasini qo'llash soliq solishda bir qator yengilliklarni yaratmoqda.

Mamlakatimizda soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalarini qayta ko'rib chiqish asosida samaradorlikni oshirish uchun ularni tizimlashtirish zarur degan xulosaga kelish mumkin.

Mamlakatimiz amaliyotiga ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini iqtisodiyotimiz

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xorijiy tajribalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, har bir mamlakat o'zining madaniy xususiyatlarini, tabiiy resurslarini, ilmiy-texnik jihozlarini hisobga olgan holda, zamonaviy barqaror soliq tizimini yaratishga harakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2019-yil 26-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-157-son Farmoni. 2024-yil 14-oktabr.
3. Авдеева В.М. — Налоговые методы стимулирования внедрения цифровых инноваций // *Налоги и налогообложение*. – 2021. – № 6. – С. 1 - 11.
4. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari. *Xalqaro moliya va hisob elektron jurnali*. №6, dekabr. 2017.
5. Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. *Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati* 2018.
6. Niyazmetov I.M. "Investitsion-innovatsion faollikni oshirishda soliq mexanizmining roli". *Iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bank-moliya tizimining samarali ta'sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami*. Toshkent: Moliya, 2017. 197 b.
7. Isayev F.I. "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 2019-yil. 116 bet.